


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

“KELISHILDI”

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar

bo‘yicha prorektor

 R.Shukurov

“21” 10 2025 yil



DTPI rektori

 O.A. Ruziyev

“21” 10 2025 yil

08.00.16 – “RAQAMLI IQTISODIYOT VA XALQARO
RAQAMLI INTEGRATSIYA” IXTISOSLIGI BO‘YICHA
MUTAXASSISLIK FANIDAN TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI UCHUN
DASTUR

Annotatsiya

Mazkur dastur 08.01.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligi bo'yicha qabul imtihoni o'tkazish uchun tavsiya etiladigan savollar, ularga javob tayyorlashda e'tiborga olish zarur bo'lgan masalalar yuzasidan umumiy yo'nalish bayonini o'z ichiga oladi.

Tuzuvchilar:

K.U.To'raboyeva DTPI "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini muditi, dotsent.
Sh.J.Borotov DTPI "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

R.X.Ergashev Qarshi Davlat Texnika universiteti DSc professor
O'.D.Rajabov Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti DSc, v.b professor

Ushbu dastur va baholash mezonini Raqamli iqtisodiyot kafedrasining 2025 yil _____ sanasidagi ___-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ma'qullangan.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ilmiy kengashining 2025 yil «21» 10 _____ - sonli qarori bilan tasdiqlangan.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda elektron hujjat almashinuvi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun elektron tijorat tizimlari bosqichma-bosqich joriy etishning iqtisodiy va huquqiy asoslari yaratilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va zamonaviy infratuzilmani qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham alohida ta'kidlab o'tib, "Raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi. Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida men yurtimizda 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb nom berishni taklif etaman" – degan fikrni bildirdi.

Bunday vazifalarning ilmiy asosini yaratishda iqtisodiy fanlar qatorida "Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya" ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon topshirish uchun dasturlar katta ilmiy-uslubiy ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, mazkur dasturni tayyorlashda muhim nazariy va amaliy-uslubiy manba sifatida O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2018 yil 18 apreldagi PQ-3673-sonli “Idoraviy axborot tizimlarini jadal integratsiyalashtirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 18 maydagi PQ-4321-sonli “Raqamli iqtisodiyot va “Elektron hukumat” tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 2018 yil 21 noyabrdagi PQ-4022-sonli “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2020 yil 6 oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-sonli qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 dekabrdagi PF-5598-sonli “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Dasturda “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya” ixtisosligiga taalluqli bo‘lgan muhim bilim, ko‘nikma va malakalar ixtisoslikning asosiy tarkibiy va mantiqiy qismlari bo‘lgan raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish qonuniyatlari o‘z ifodasini topgan.

Ushbu dastur 08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya” ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgor doktorant va mustaqil izlanuvchilar uchun mo‘ljallangan.

I BO‘LIM. RAQAMLI IQTISODIYOT VA XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA IXTISOSLIGINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligining predmeti va asosiy yo‘nalishlarining ilmiy-uslubiy muammolari

Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligining vujudga kelishi va uning zamonaviy yo‘nalishlari. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligining predmeti. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligi predmetining konsepsiyalari. Ixtisoslikning tadqiqot ob‘ekti va metodlari. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanish davri. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligida yangi tadqiqot yo‘nalishlari. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o‘rni. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligining mohiyati va uning maqsadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlanish nazariyalari va yangi paradigmalari. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligini o‘rganishning dolzarbligi. Raqamli iqtisodiyot asosidagi zamonaviy biznesning yangi modellari hamda ilmiy va ijtimoiy saytlar tashkil qilishning asosi sifatida xizmat ko‘rsatuvchi raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish.

Raqamli iqtisodiyot, xalqaro raqamli integratsiya, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi – asosiy tushunchalarining izohi va farqlanuvchi jihatlari. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligining vazifalari, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishi muammolarini o‘rganishda va raqamli iqtisodiyot asosidagi zamonaviy biznesning yangi modellarini yaratishda ixtisoslikning ahamiyati. Iqtisodiy tizimlarni modellashtirish va raqamli iqtisodiyotga ishonch darajasini oshirish va uning xafvsizligini ta’minlash uslubiyoti.

Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligini nazariy-uslubiy jihatdan boyitishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ma’ruzalarini ahamiyati.

Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ixtisosligining mazmuni, tamoyillari va maqsadi

Raqamli iqtisodiyotning mohiyati. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, maqsadi va vazifalari. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari va uning istiqboldagi ko‘rinishi. Raqamli iqtisodiyotning ta’rifi va tavsifi hamda uning aholi turmush darajasini oshirishdagi roli. Raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini tashkil etish nazariyasi va asosiy shakllari. Raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini tashkil etishning yangi shakllari. Raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salbiy tomonlari. Raqamli iqtisodiyotning asosiy ko‘rsatkichlari va uning turli sohalarda ishlatilishi. Raqamli iqtisodiyotning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi zaruriyati. Raqamli iqtisodiyotning samaradorlik mezonlari.

Rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning roli. Jahon mamlakatlarida raqamli iqtisodiy siyosat va uning asosiy masalalari.

Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya konsepsiyasi va bu borada iqtisodchi olimlarning yondashuvlari. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiyaning asosiy dastaklari. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiyaning pirovard maqsadi. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya ob'ektlari. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiyaning asosiy metodlari. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiyaning asosiy vazifalari va tamoyillari.

Ta'lim va kadrlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omili sifatida

Kadrlar sahlohiyati – raqamli iqtisodiyotning asosiy omili sifatida. Raqamli iqtisodiyot kadrlari qanday va ular nimalarni bilishi kerak. Raqamli iqtisodiyotda ta'lim va ta'lim texnologiyalari. Raqamli iqtisodiyotning ta'lim muhitini shakllantirish usullari va yo'nalishlari.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, shuningdek, 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish haqidagi fikrlari.

O'zbekistonda raqamli elektron hukumatning rivojlanishi

Elektron hukumat konsepsiyasi haqida tushuncha. Elektron davlat tushunchasi va konsepsiyasi (nashr, elektron shakllar, tranzaksiyalar, transformatsiyalar).

O'zbekistonda elektron hukumatning asosiy tamoyillari. Yagona davlat xizmatlari interaktiv portal va uning imkoniyatlari. O'zbekistonda blokcheyn davlat va elektron demokratiya tashkil qilish muammolari. Moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish jarayonini amalga oshirish.

«Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish. Moliya (davlat va biznesning moliyaviy siyosati, shuningdek butun moliya-kredit sektori, shu jumladan moliyaviy regulyatorlar).

II BO'LIM. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YARATILISHI VA ULARNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Yangi raqamli dunyoning muhim elementlari tavsifi

Axborot tizimlari va tarmoqlar. Tayanch tushuncha va vazifalari. Axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish. Iqtisodiy masalalarni yechimini topish uchun axborot tizimlarini ishlab chiqishning maqsad va vazifalari. Jamiyatni raqamli axborotlashtirish va uning ahamiyati. Raqamli axborot tizimlari tushunchasi va ularga misollar. Raqamli axborot tizimlaridagi jarayonlar. Zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish. Iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish.

Ma'lumotlar bazasi va banki tushunchalari. Yaratish maqsadi va vositalari. Ma'lumotlar bazasining raqamli axborot tizimlaridagi ahamiyati.

Elektron pul ta'rifi va xossalari. Elektron (raqamli) pullarning iqtisodiyot nazariyasidagi o'rni. Elektron pul muomalasining iqtisodiy tushunchasi va uning iqtisodiyotda tutgan o'rni. Elektron pullarning yutuqlari va kamchiliklari. Elektron to'lov tizimlarining umumiy xarakteristikalari.

Raqamli axborot tizimlarini loyihalashdagi avtomatizatsiyalashgan tizimlar ahamiyati va ularga misollar. Raqamli ekspert tizimlari tushunchasi, misollar. Raqamli avtomatizatsiyalashgan ishchi o'rinlari, misollar. Raqamli avtomatizatsiyalashgan ofislar, misollar.

Blokcheynning mohiyati va uning qanday yaratilganligi haqida. Blokcheynda tarmoq havfsizligi masalalari haqida. Blokcheynda moliyaviy xizmatlar sektori qanday o'zgaradi va bu qanday natijalarga olib keladi. Oqich tarmoq korxonalarining biznes-modellari va ularning ishlatilishi.

Bitkoin blokcheyni haqida tushuncha. Maynerlar va ularning raqamli iqtisodiyotdagi ahamiyati. Kriptovalyutalar – yangi raqamli iqtisodiyot aktivlari sifatida.

Raqamli iqtisodiy muhitni shakllantirishda raqamli texnologiyalar

Katta ma'lumotlar bazasi (*big data*), aqlli jamiyat (*smart society*), sun'iy intellekt (*artificial intelligence*). Sun'iy intellekt texnologiyalari va kompyuterlar yordamida o'qitish. Bulutli texnologiyalar va ulardan foydalanish. Platforma va infratuzilmani tashkil qilishning ilmiy konsepsiya, usul, model, tamoyil va mexanizmlari – bulutli hisob-kitoblar (*cloud computing*). Iqtisodiyotda internetning mohiyati va ishlatilishi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida katta ma'lumotlar bazasini yaratish va rivojlanish tendensiyalari. Raqamli analitika va katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash. “4.0 – sanoat inqilobi” konsepsiyasi va uning ahamiyati. Raqamli iqtisodiyotda kiberfizik tizimlar va internet buyumlar (*internet of things*), BIM texnologiyalar (*Building Information Modeling*).

Bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar

Bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyot va uning mohiyati. Raqamli biznes, raqamli loyiha boshqaruvi (*digital project management*), innovatsion rafamli ekotizim (*digital ecosystem*).

Raqamli iqtisodiyot asosidagi zamonaviy biznesning yangi modellarini shakllantirish. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarida raqamli iqtisodiyot usullarini qo'llash. Raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish. Raqamli iqtisodiyot tarmoqlari orasida ma'lumot almashinish uslubiyoti.

Iqtisodiyotning turli sohalarida raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan

foydalanish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat- ishlab chiqarish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida meditsina. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy soha. Raqamli iqtisodiyot sharoitida savdo. Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm va servis. Raqamli iqtisodiyotning ilm-fanga ta'siri. Raqamli ijtimoiy-iqtisodiy makon. Raqamli logistika, ijtimoiy ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishning raqamlashtirilgan jarayoni. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqlar va soliqqa tortish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida menejment va marketing.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tannarxning o'zgarishi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida qiymatning yaratilishi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida transport sohasi.

Loyihaning hayotiylik sikli. Loyihani yaratish bosqichlari. Loyiha boshqaruvi tushunchasi. Raqamli boshqaruvning asosiy maqsad va vazifalari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar haqida tushuncha. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda raqamli iqtisodiyotning qo'llanilishi va uning ahamiyati.

Ta'lim biznesida raqamli innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari. Kichik biznesda innovatsion 3D-printerlarining va texnologiyalarning qo'llanilishi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va milliy raqamli iqtisodiyotlarning xalqaro raqamli integratsiyasiga innovatsiyalar transferini moliyalashtirish.

Jahon raqamli iqtisodiyotni rivojlanishini hisobga olgan holda milliy modelni amalga oshirish, investitsiya qilish va moliyalashtirishning xususiyatlari va mexanizmlari.

Raqamli iqtisodiyotda banklarning roli va ularning transformatsiyasi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank-moliya sohasi. O'zbekiston raqamli iqtisodiyotida banklarning roli va ularning transformatsiyasi. Raqamli iqtisodiyotning moliya-bank amaliyotida qo'llanilishi bo'yicha takliflar va munozaralar. Raqamli bank faoliyati haqida tushuncha. Moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi.

Elektron xizmatlar va raqamli xizmatlarning yangi bozorlari haqida tushuncha. Raqamli moliya (shu jumladan axborot-kommunikatsiya va blokcheyn texnologiyalar, kriptoaaktivlar, kriptobirjalar, mayninglar, tokenlar, fintex (fintech) mahsulotlar va hokazolarni qo'llaydigan raqamli moliya- kredit sohasi).

"Internet banking"ning iqtisodiy mohiyati va uning imkoniyatlari. "Virtual banking"ning o'ziga xos xususiyatlari va jahon tajribasi. Chakana elektron to'lov tizimlar, ularning turlari va iqtisodiyotda tutgan o'rni. Virtual kartalarning ishlash prinsip va mexanizmlari. Xalqaro kartochni to'lov tizimlar va ularning ilg'or tajribalari.

Raqamli iqtisodiyotda ma'lumotlar havfsizligini ta'minlash

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy xavfsizlik. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy xavfsizlik. Raqamli iqtisodiyot sharoitida siyosiy xavfsizlik.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'naviy xavfsizlik.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavfsizligi. Ma'lumotlarning elektron himoyasini amalga oshirish usullari. Elektron imzo haqida tushuncha. Ochiq va yopiq kalitlar. Eng mashhur shifrlash va undan foydalanish haqida tushuncha. Bank xavfsizlik tizimida axborot xavfsizligi. Elektron puldan foydalanishda xavfsizlik tizimini qo'llash.

Raqamli iqtisodiyotning muammolari va unga bo'lgan tahdidlar

Raqamli iqtisodiyotda makroiqtisodiy muammolar. Raqamli iqtisodiyotning tahdid, risk va imkoniyatlari. Elektron puldan foydalanishdagi risklar. Raqamli dunyodagi iqtisodiy firibgarliklar haqida tushuncha. Raqamli iqtisodiyotning ba'zi bir firibgarlik usullari tavsifi. SMS-firibgarligi va uning turlari. Raqamli iqtisodiyot firibgarliklaridan himoyalaniş usullari.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida monopoliya va unga qarshi kurashish masalalari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining ijtimoiy tabaqalanish darajasini pasaytirish muammolari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlatlar o'rtasida iqtisodiy tabaqalanishning kuchayishi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida jamiyatning yo'qotishi va yutuqlari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlik masalalari. Raqamli iqtisodiyotning ekologiyaga ta'siri.

III BO'LIM. RAQAMLI IQTISODIYOTNING AMALIYOTDA QO'LLANILISHI

Kriptoaktivlar, kriptoalyutalar va blokcheyn texnologiyalar

Kriptoaktivlar, kriptoalyutalar va blokcheyn texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari. Kriptoalyutalarning paydo bo'lishi va uning rivojlanish jarayoni. Kriptoalyuta va kriptoanaliz asoslari hamda ularning ishlatilishi. Kriptoalyutalar va to'lov tizimlari haqida tushuncha. Blokcheyn texnologiyalari va smart-kontraktlar hamda ulardan foydalanish. Turli ko'rinishdagi kriptoalyutalarning ta'rifi va tavsifi. Blokcheyn texnologiya va kriptoalyutalarning amaliyotda qo'llanilishi bo'yicha xulosa va takliflar.

Kriptoalyutalar bozorining rivojlanishi

Kriptoalyutalardan foydalanish va bu boradagi muammolarning tavsifi. Real iqtisodiyotda ICO mexanizmining ishlatilishi haqida tushuncha. Boshlang'ich tokenlar taklifi ICOLarni ishlatish bo'yicha takliflar va misollar.

Investitsiyalarni jalb qilishda kriptoiqtisodiyot elementlaridan foydalanish

Kriptoalyutalardan investitsiyalar jalb qilishda foydalanish. Kriptoalyuta almashinuv punktlari va birjalari tavsifi. O'zbekistonda kriptoalyutalar bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish qoidalari. Xorijiy rivojlangan mamlakatlar tajribasini

o'rganish.

Kriptoqiyosodiyotning kelajak istiqbollari

Kriptoqiyosodiyot bozorining kelajak istiqbollari haqida tushuncha. Jahon miqyosida kriptoqiyosodiyotning ishlatilishi va ularning ahamiyati. Kriptoqiyosodiyotlardan foydalanish bo'yicha turli mamlakatlar strategiyalari haqida tushuncha. Xorijiy rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish.

Raqamli iqtisodiyotda ye-tijorat

Ye-tijoratning iqtisodiy mohiyati. Ye-tijoratni boshqarishning zamonaviy usullari va yondashuvlari. Ye-tijoratning turli modellari va ulardan foydalanish usullari.

Ye-biznes tushunchasi va uning ye-tijoratdan farqli tomonlari. Ye-iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor tomonlari. Kraudsorsing va kraudfanding usullarining ye-tijoratda ishlatilishi. Xorijiy rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish.

Biznesning turli sohalarida ye-tijoratni boshqarish usullari va ularning ishlatilishi. Raqamli ye-tijoratning rivojlanish yo'nalishlari va istiqbollari.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot bo'yicha ishlab chiqilgan normativ-huquqiy xujjatlar. "Raqamli O'zbekiston-2030" milliy dasturining asosiy vazifalari. "Taqsimlangan reestr" (blokcheyn) intellektual mulk va mualliflik huquqi ob'ekti sifatida.

08.00.16 – «Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya» ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD), doktorantura (DSc) va mustaqil izlanuvchilikka kirish imtihonlari va suhbat savollari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining mazmuni va mohiyati Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, maqsadi va vazifalari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi PQ-4321-sonli "Raqamli iqtisodiyot va "Elektron hukumat" tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining mazmun mohiyati
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 dekabdagi PF-5598-sonli "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoning mazmuni va mohiyati
4. Dunyo iqtisodchi olimlari tomonidan "raqamli iqtisodiyot" tushunchasini "4-sanoat inqilobi" deya atayotganligining sababini izohlab bering.
5. Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari va salbiy tomonlari.
6. Raqamli iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlari.

7. Raqamli iqtisodiyotda makroiqtisodiy muammolar.
8. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari va uning istiqboldagi ko'rinishi?
9. Raqamli iqtisodiyot bo'yicha kadrlarga nimalarni bilishlari talab etiladi.
10. Raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi.
11. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga keladigan yangi kasb-professiyalar?
12. Raqamli iqtisodiyot sharoitida Elektron hukumat.
13. Raqamli iqtisodiyot sharoitida Big Data ma'lumotlar bazasini yaratish va rivojlanish tendensiyalari.
14. Raqamli iqtisodiyotda ta'lim va ta'lim texnologiyalari.
15. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat ishlab chiqarish.
16. Raqamli iqtisodiyot sharoitida meditsina.
17. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy soha.
18. Raqamli iqtisodiyot sharoitida savdo.
19. Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm va servis.
20. Raqamli iqtisodiyotning ilm-fanga ta'siri.
21. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy xavsizlik.
22. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy xavsizlik.
23. Raqamli iqtisodiyot sharoitida siyosiy xavsizlik.
24. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'naviy xavsizlik.
25. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank-moliya sohasi.
26. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.
27. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqlar va soliqqa tortish.
28. Raqamli iqtisodiyot sharoitida menejment va marketing.
29. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tannarxning o'zgarishi.
30. Raqamli iqtisodiyot sharoitida qiymatning yaratilishi.
31. Raqamli iqtisodiyot sharoitida transport sohasi.
32. Raqamli iqtisodiyot sharoitida monopoliya va unga qarshi kurashish masalalari.
33. Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining ijtimoiy tabaqalanish darajasini pasaytirish muammolari.
34. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlatlar o'rtasida iqtisodiy tabaqalanishning kuchayishi.
35. Raqamli iqtisodiyot sharoitida jamiyatning yo'qotishi va yutuqlari.
36. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavsizligi.
37. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlik masalalari.
38. Raqamli iqtisodiyotning ekologiyaga ta'siri.
39. Raqamli iqtisodiyotda biznes muhiti va internet savdo.
40. Raqamli iqtisodiyotda "sun'iy intellekt" tushunchasi va uning imkoniyatlari.
41. Raqamli iqtisodiyotda rivojlanayotgan texnologiyalar.
42. Onlayn biznes modeli.
43. Aqliy tarkib va ijtimoiy biznes (Smart Contents and Social Business).

44. Internet marketing strategiyasi (E-Marketing Strategy).
45. Bulutli texnologiyalar.
46. Raqamli almashinish (Digital Transformation) tushunchasiga izoh bering.
47. Raqamli bo'linish tushunchasiga izoh bering.
48. Machine Learning tushunchasiga izoh bering.
49. Smart factoring tushunchasiga izoh bering.
50. Internet of Things tushunchasiga izoh bering.
51. Data Mining tushunchasiga izoh bering.
52. Robo-Advisors tushunchasiga izoh bering.
53. Cloud Computing tushunchasiga izoh bering.
54. Kriptovalyutalar bilan ishlash amaliyotini tushuntirib bering.
55. Kriptovalyutalar emissiyasi va unga ta'sir etuvchi omillar.
56. Kriptovalyutalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pozitsiyasi qanday?
57. O'zbekistonda bugungi kunda kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalar bilan qaysi tashkilot shug'ullanadi?
58. Bitkoinlar haqida tushuncha bering.
59. Bitkoin savdosining rivojlanish tendensiyalari.
60. Blokcheyn texnologiyasini qanday sohalarda qo'llash mumkin?
61. O'zbekistonda kriptovalyutalardan foydalanishning institutsional asosi qanday?
62. Blokcheyn texnologiyalarining yaratilishi va ularning iqtisodiyotga ta'siri.
63. Hozirda mashhur kriptovalyuta pullar: Bitcoin, Ethereum, Ripple, IOTA, Bitcoin Cash, Stellar, Monero va Litecoin'lar haqida ma'lumot bering.
64. Kriptobirjalar haqida tushuncha bering. Bugunda faoliyat olib borayotgan qanday kriptobirjalarni bilasiz?
65. Raqamli valyutalar haqida nimalarni bilasiz?
66. Kriptovalyutalardan foydalanishda qanday xavf-xatarlar yuzaga kelishi mumkin? Uni moliyaviy piramidadan farqli jihatlari nimada?
67. Kriptovalyutalarning afzalliklari va noqulayliklari haqida so'zlab bering.
68. Blokcheyn texnologiyasini ishonchliligini asoslab bering.
69. Blokcheynda tarmoq xavsizligi qanday ta'minlanadi?
70. Dunyo bo'yicha internet xizmatlarining egasi kimlar? Ular kim tomonidan nazorat qilinadi.
71. Kriptovalyutalarning mamlakat iqtisodiyotining investitsion jozibadorligiga ta'siri?
72. Kriptovalyutalarni rasmiy joriy qilinishi mamlakat iqtisodiyotida qanday o'zgarishlarga olib kelishi mumkin?
73. Kriptovalyutalardan foydalanish muammolari.

08.01.16 -"Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish sinovlari uchun maxsus fanlardan da'vogarlarining bilimlarini baholash mezonlari

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Maksimal ball	100
O'tish bali	55

Savollarni baholash quyidagi mezon asosida amalga oshiriladi	
86-100- "a'lo"	Javoblarida fanning mavzulari va savollari bo'yicha ijodiy fikrlash mavjud bo'lsa, mamlakatimizda modernizatsiyalash jarayonlarini jadallashtirish, demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasidan kelib chiqqan vazifalarni bajarish yo'llari o'z aksini topgan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha tavsiyalar bergan bo'lsa, savol bo'yicha javobda mustaqil mushohada yuritilgan bo'lsa, tavsiyalarni amaliyotga qo'llash tartiblari ko'rsatilgan bo'lsa.
71-85- "yaxshi"	O'z javobida qo'yilgan savol bo'yicha mustaqil mushohada yuritgan bo'lsa, ularning mohiyatini deyarli to'liq ochib bergan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan bo'lsa.
55-70- "qoniqarli"	Javobida fan bo'yicha variantga kiritilgan savollarga qisman javob bergan bo'lsa, asosiy tushunchalarga bergan izohi kam bo'lsada, mavjud bo'lsa
0-54- "qoniqarsiz"	Javobida qo'yilgan savol mazmuni umuman yoritilmagan bo'lsa, izohlar mavjud bo'lmasa, ya'ni talabgor javobida qo'yilgan savollar bo'yicha umuman tasavvurga ega emasligi aniq bo'lsa.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari Asosiy adabiyotlar

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 y., 2-son, 47-modda, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019 y., 03/19/563/3685- son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" Qonuni (yangi tahriri), 2014 yil 6 may, O'RQ-370-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020 y., 03/20/603/0071-son).
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" Qonuni, 2018 yil 9 aprel, O'RQ-472-son.
4. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" Qonuni, 2019 yil 2 iyul, O'RQ-547-son.
5. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida" Qonuni (yangi tahriri), 2019 yil 22 oktabr, O'RQ-573-son.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" Qonuni, 2019 yil 29 oktabr, O'RQ-576-son.
7. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida" Qonuni, 2019 yil 1 noyabr, O'RQ-578-son.
8. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" Qonuni (yangi tahriri), 2019 yil 5 noyabr, O'RQ-580-son.
9. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" Qonuni (yangi tahriri), 2019 yil 11 noyabr, O'RQ-582-son.
10. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" Qonuni, 2019 yil 25 dekabr, O'RQ-598-son.
11. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son.
12. O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida" Qonuni, 2020 yil 6 yanvar, O'RQ-600-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik,

- innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida"gi PF-5308-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 apreldagi "Idoraviy axborot tizimlarini jadal integratsiyalashtirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3673-sonli Qarori.
 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-3832-sonli Qarori.
 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.
 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-sonli Qarori.
 7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT- industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851- sonli qarori.
 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-sonli Farmoni.
 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614-sonli Farmoni.
 10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida" PF-5635-sonli Farmoni.
 11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi "Raqamli iqtisodiyot va "Elektron hukumat" tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4321-sonli Qarori.
 12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
 13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 31 yanvardagi "Davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5930-sonli Farmoni.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli Qarori, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2019 y., 09/19/1046/4242- son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil
- 22 noyabrdagi 937-son Qarori, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2019 y., 09/19/1046/4242-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 iyuldagi "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 606-son Qarori.

IV.

Asosiy adabiyotlar

1. Абдрахманова Г. И., Вишнеvский К. О., Гохберг Л. М. и др. Индикаторы цифровой экономики: 2018: статистический сборник / Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». – М.: НИУ ВШЭ, 2019. – 248 с.
2. Абдрахманова Г. И., Гохберг Л. М. и др. Цифровая экономика: краткий статистический сборник / Под общей редакцией: Л. М. Гохберг, Е. Занозина, Я. И. Кузминов, М. Сабелникова. – М.: Национальный исследовательский университет "Высшая школа экономики", 2018.
3. Абдрахманова Г. И., Ковалева Г. Г. Цифровая экономика: Цифровые навыки населения. – М.: НИУ ВШЭ, 2017.
4. Акаев А.А., Kenjabaev A.T., Pnamova Yo.S., Jumaniyozova M.Yu. Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari. Darslik.T.-"Fan va texnologiyalar". 2019.- 510 bet.
5. Генкин А. Блокчейн: как это работает и что ждет нас завтра. – М., 2018. – 592 с.
6. Gulyamov S. S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2019. – 396 b.
7. Gulyamov S. S., Abdullaev A.M. Iktisodiyotda zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalari. T.: Impress Media, 2018.
8. Катасонов В. Цифровые финансы. – М., 2017.
9. Кешелева А. В. и др. Введение в цифровую экономику. – М., 2017.
10. Kenjabaev A.T., Ikramov M.M., Allanazarov A.A.. Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari. O'quv-qo'llanma.T.-"O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". 2017.- 408 bet.
11. Лapidус Л. В. Цифровая экономика: Управление электронным бизнесом и электронной коммерцией: Учебник / Л. В. Лapidус – М.: НИЦ

ИНФРА-М, 2018. – 479 с.

12. Одинцов Б. Е., Романов А. Н. Информационные ресурсы и технологии в экономике: Учебное пособие / Под ред. Одинцов Б. Е. – М.: Вуз. уч., НИЦ ИНФРА-М, 2019. – 462 с.
13. Одинцов Б. Е., Романов А. Н., Догучаева С.М. Современные информационные технологии в управлении экономической деятельностью (теория и практика): Учебное пособие / Б. Е. Одинцов – М.: Вуз. уч., НИЦ ИНФРА-М, 2020. – 373 с.
14. Паштова Л. Г. Корпоративные финансы в цифровой экономике. Монография, 2020.
15. Хасаншин И.А., Кудряшов А.А., Кузмин Е. В., Крюкова А. А. Цифровая экономика. Учебник для вузов / Под ред. И. А. Хасаншина, 2019. – 288 стр.
16. Щербаков А. В. (отв. ред.), Буданов В. Г., Колесова Л. А., Курдюмов В. С., Олескин А. В. Введение в теорию цифровой экономики / Центр социальноэкономического прогнозирования им. Д.И. Менделеева, Сретенский клуб им. С.П. Курдюмова. – М.: Грифон, 2018. – 104 с.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абдикеев Н. М., Богачев Ю. С., Лосев А. А., Морева Е. Л., Октябрьский А. М., Соловев В. И., Толкачев С. А. Методы и модели использования цифровых платформ обеспечения эффективного функционирования цепочек добавленной стоимости в промышленности. Монография, 2020.
2. Акперов И. Г., Сметанин А. В., Коноплева И. А. Информационные технологии в менеджменте: Учебник / И. Г. Акперов. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2019. – 400 с.
3. Алекс Форк. Bitcoin. Больше чем деньги. 2014, 280 с.
4. Алтухова Н. Ф., Бондаренко В. В., Василева Е. В. и др. Эффективность управления кадрами государственной гражданской службы в условиях развития цифровой экономики и общества знаний: Монография / Н. Ф. Алтухова – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2019. – 221 с.
5. Ауупов Р. Х. va boshqalar. O'zbekistonda elektron biznesning rivojlanish istiqbollari. – T.: "Format poligraf" nashriyoti, 2016. – 205 b.
6. Ауупов Р. Х., Baltabaeva G. R. Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018. – 172 b.
7. Ауупов Р. Х., Baltabaeva G.R. Kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsion rivojlanish yunalishlari. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – 232 b.
8. Брагин Л. А., Иванов Г. Г., Никишин А. Ф., Панкина Т. В. Электронная коммерция: Учебник / Л. А. Брагин и др. – М.: ИД ФОРУМ, НИЦ ИНФРА-

- М, 2020 – 192 с.
9. Брагин Л. А., Панкина Т.В. Организация розничной торговли в сети Интернет: Уч.пос. / Л. А. Брагин – М.: ИД ФОРУМ, НИЦ ИНФРА-М, 2020. – 120 с.
 10. Викулин И. М. Викулина Л. Ф., Горбачев В. Э. Магниточувствительные приборы для сенсорных и исполнительных сетей «Интернета вещей». Монография, 2020.
 11. Горбенко А. О., Мамасуев А. В. Информационные технологии в налогообложении: Учебное пособие / А. О. Горбенко – М.: КУРС, НИЦ ИНФРА-М, 2020. – 256 с.
 12. Евгений Филиппов. Криптовалюта от А до Я. STFOREX, 2017.
 13. Звонова Е. А. Мировая экономика и мировые финансы в XXI веке: актуальные тренды. Монография, 2020.
 14. Звонова Е. А. Новые траектории развития международных финансовых отношений: современная модел в условиях цифровой экономики. Том 1, 2020.
 15. Звонова Е. А. Новые траектории развития международных финансовых отношений: современная модел в условиях цифровой экономики. Том 2, 2020.
 16. Иванов В. В., Коробова А. Н. Государственное и муниципальное управление с использованием информационных технологий: Учебное пособие / В. В. Иванов – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2020. – 383 с.
 17. Москвитин Г. И. Менеджмент: цифровые технологии, методы, контрол. Сборник статей, 2020.
 18. Натаниэл Поппер. Цифровое Золото. Невероятная история биткойна или о том, как идеалисты и бизнесмены изобретают денги заново, 2016. – 350 с.
 19. Пол Виня, Майкл Кейн. Эпоха криптовалют. – М. 2018.
 20. Романова Ю. Д., Дяконова Л. П., Женова Н. А. и др. Современные информационно-коммуникационные технологии для успешного ведения бизнеса: Учебное пособие / Ю. Д. Романова – М.: ИНФРА-М, 2019. – 279 с.
 21. Салин В. Н. Парадигмы развития статистики в условиях цифровой экономики. Аспирантура. Бакалавриат. Магистратура. Монография, 2020.
 22. Светлов Н. М., Светлова Г. Н. Информационные технологии управления проектами: Учебное пособие / Н. М. Светлов – 2 изд. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2020. – 232 с.
 23. Синаторов С. В., Пикулик О. В., Боченина Н.В. Информационные технологии в туризме: Уч. пос. / С. В. Синаторов – М.: Алфа-М, НИЦ ИНФРА-М, 2016. – 336 с.
 24. Сухарев О. С., Курманов Н. В., Мелковская К. Р. Функциональный и

- интернет-маркетинг: Монография / О. С. Сухарев – М.: КУРС, НИЦ ИНФРА-М, 2019. – 352 с.
25. Шеве Г., Хюзиг С., Гумерова Г. И., Шаймиева Э. Ш. Менеджмент цифровой экономки. Менеджмент 4.0. Монография, 2020.
 26. Andreas M. Antonopoulos. Mastering Bitcoin: Unlocking Digital Cryptocurrencies. 2014, 298 p.
 27. Don Tapscott, Alex Tapscott. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World. 2016, 324 p.
 28. Jacob William. Blockchain: The Simple Guide To Everything You Need To Know. 2016, 69 p.
 29. Jeremy Clark. Bitcoin, blockchain, cryptocurrency, cryptology (A detailed and technical study of Bitcoin, blockchain, cryptocurrency, and cryptology). 2016, 499 p.
 30. Melanie Swan. Blockchain: Blueprint for a New Economy. 2015, 152 p.
 31. Paul Vigna, Michael Casey. The Age of Cryptocurrency: How Bitcoin and the Blockchain Are Challenging the Global Economic Order. 2015, 384 p.

VI. Internet saytlar.

1. <http://oak.uz>
2. <https://napm.uz>
3. <https://mininnovation.uz>
4. <http://www.cbu.uz>
5. <http://www.soliq.uz>
6. <https://rgsbm.uz>
7. <https://id.gov.uz>
8. <http://www.lex.uz>
9. <http://www.norma.uz>
10. <http://www.worldbank.org>
11. <https://muic.uz>
12. <http://dd.gov.uz>
13. <http://my.gov.uz>
14. <http://www.alpari.com>
15. <https://bitcoin.org>
16. <https://www.blockchain.com>
17. http://spkurdyumov.ru/digital_economy
18. http://spkurdyumov.ru/digital_economy/razvitie-cifrovoj-ekonomiki-v-rossii-programma-do-2035-goda – Развитие цифровой экономики в России: программа до 2035 года
19. <http://fidp.ru/>
20. <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-ekonomika-kak-obekt-issledovaniya-obzor-publikatsiy>
21. <https://cyberleninka.ru/article/n/evolyutsiya-kontseptsiy-tsifrovoy-ekonomiki-kak-fenomena-neoekonomiki>
22. <https://cyberleninka.ru/article/n/prognozirovanie-tendentsiy-razvitiya-tsifrovogo-pravitelstva-e-government-v-postsovetskih-stranah>
23. <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-ekonomika-kak-novaya-paradigma-razvitiya-vyzovy-vozmozhnosti-i-perspektivy>
24. <https://ecfor.ru/publication/razvitie-tsifrovoy-ekonomiki-v-mire-i-rossii/>
25. https://www.econ.msu.ru/science/seminars/digital_economy/